

A. RAFIYEV, **G. MUHAMMADJONOVA,**
T. TOSHPO‘LATOV

O‘ZBEK TILI

Ta‘lim rus va qardosh tillarda
olib boriladigan maktablarning
2-sinfi uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi
vazirligi tasdiqlagan

To‘rtinchi nashr



TOSHKENT — «O‘ZBEKISTON» — 2018

UO'K 811.512.133-053.5
KBK 81.20'zb
R27

Taqrizchilar:

- O'. Lafasov* — Toshkent davlat sharqshunoslik instituti dotsenti, f.f.n.,
Z. Polvonova — Chilonzor tumanidagi 90-maktab o'qituvchisi,
H. Bakiyeva — Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchisi,
S. Maxsumova — O'zDJTU dotsenti, f.f.n.

SHARTLI BELGILAR:



— To'g'ri o'qing



— Chiroyli yozing



— Soat

Rafiyev A.

R27 O'zbek tili: Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 2-sinfi uchun darslik/**A. Rafiyev**, G. Muhammadjonova, T. Toshpo'latov. To'rtinchi nashr. — Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2018. — 80 b.

UO'K 811.512.133-053.5
KBK 81.20'zb

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-25-555-5

© A. Rafiyev va boshq., 2018
© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2012–2018



Mavzu: TANISHUV



- Assalomu alaykum.
- Vaalaykum assalom.
- Bu kim?
- Bu men.
- Siz kimsiz?
- Ismim Aziz. Familiyam ...



Aa
Oo
Nn

an
on
no

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



-

Ana ona.



Ona, ana non.



Aa Aa Aa
Oo Oo Oo
Nn Nn Nn
ana, ona. Ana ona.



Tt
Mm

ta
to
ma
mo

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	li	Jj	Kk	LI	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



□ - □□



□□



□□□

Ana ot. Mana tom.



Tt Tt Tt
Mm Mm Mm
Ota, mana ot.



Ana ona.

Mana non.

Omon.

Ana onam. Omon, mana ot.



on

na

mo

Ana ona.

Mana non.

Ona, ana non.



li

in
ni
im

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	li	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



in



it

Mana in. Ana it.



li li li
in in in
Ana it. Mana tom.



Bb

Ll

ba
bo
bi
la
lo
li

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	li	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



bo-bo



lo-la



ol-ma

Bitta bola. Mana olma.



Bb Bb Bb
Ll Ll Ll
Bobo, ota, ona, bola-oila.
Mana lola.



O-i-la

Bo-la



-

-

-



-



Ana in. Mana ot.

Olima, olmani ol.

Omon, inni olma.



ka
ko
ki

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	li	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



ki-tob



ka-mon




ka-mar

Mana bitta



ni ol.





ra
ro
ri

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



rom



ar-ra



ka-ram




ni ol.

Bitta



.






O'o'
Dd

o't
o'n
ko'
da
do
di

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	li	Jj	Kk	Li	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



10



o'n

o'r-mon

bo'-ri



da-la


do-i-ra

Õõ Õõ Õõ

Dd Dd Dd

Õnta doira.

Õrmon katta.



Katta o'rmon. Mana o'nta doira.

Mana o'rmon. O'rmon katta. O'rmonda bo'rilar bor. O'tkir o'rmonda bo'rini ko'rdi.



□	□	-	□	□	□
---	---	---	---	---	---



□	□	□
---	---	---

10

□	□
---	---



□	□	-	□	□	□
---	---	---	---	---	---



□	-	□	□	□
---	---	---	---	---



□	□	-	□	□
---	---	---	---	---



O'rmonda bo'rilar bor.

O'tkir o'rmonda bo'rini

ko'rdi.



nu
un
bu

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



tul-ki



ukki




un

Katta



Mana





ya
yo
yi
ye
yu

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



ki-yik




uy



toy

Mana katta






Ee

el
ek
be
me
re

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'




e-lak



e-kin

Bu



Mana



Ee Ee Ee
Daryoda kema kōrindi.
Bu katta elak.



ga
go
gi
ge
gu

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



gu-gurt



gul-don



gul


Mana



.



Bu guldon.





ng

tong
rang

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



bod-ring

tong

Tong otdi. Bu bodring. Bu ko'k rang.



ng ng ng
Tong otdi.
Mana bodring.



sa
so
si
se
su

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



a-sal



gi-los



so-at



si-ngil

Bu



.

Mana katta



.



Ss Ss Ss

Singlim erta turdi.

Bu gilos.



Hh
Xx

ha xa
ho xo
hi xi
he xe
hu xu

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



hay-kal



tim-soh

be-hi


xur-mo



xat



Amir Temur bobo.
Mana behi daraxti.





Bu – Amir Temur haykali. Bu – daraxt.

Bu – Amir Temur nomli maydon. Maydonda uning haykali bor. Amir Temur buyuk sarkarda.



Maydonda katta haykal bor. Hilola xolasiga xurmo berdi.



pa
po
pi
pe
pu

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



pax-ta



pal-to



par-ta

Bu paxta. Ana paxta dalasi. Bu issiq palto. Mana parta.





qa
qo
qi
qe
qu

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'




qa-lam

qo'l-qop

qand

Mana qora qalam. Bu mening qo'lqopim.
Oq qand.





Sh
sh
Ch
ch

sha cha
sho cho
shi chi
she che
shu chu

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



shox



osh



e-shik



cha-na



che-lak



ol-cha



Sh sh Sh sh

Ch ch Ch ch

Örmonda sher bor.

Charos bir chelak olcha
terdi.



Quyosh
chiqdi.



Paxta terimi
boshlandi.



Shoxga
chumchuq
qo'ndi.



-

-



- -



Shirin, choyga qand sol.
Men choy ichdim.



ja
jo
ji
je
ju

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



jo'-ja




jo'-xo-ri



Ja-hon-gir

Bu jo'ja. Jo'ja sariq. Jahongirning jo'jalari bor. U jo'jalariga jo'xori berdi.





G'g'

g'a
g'o
g'i
g'e
g'u

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	,



g'ij-jak



bog'



g'ildirak

G'ulom g'ijjak chaldi. Bog'da jaji bolalar gul teryaptilar. G'olib bilan G'ani bog'da o'ynadilar.



Soḡ tanda soḡlom aql.
Soḡliging - boyliging.



za
zo
zi
ze
zu

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



u-zum

Zumrad
zirak olib



zi-rak

aqli
berdi.




zeb-ra

qiz. Dadasi



zi-na

Ziyodaga





fa
fo
fi
fe
fu

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	,



fil




daf-tar



shi-fo-kor

Bu katta fil. Mana bitta daftar. Mening onam shifokor.





va
vo
vi
ve
vu

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



to-vuq




ve-lo-si-ped



var-rak

Bu tovuq. Tovuq don yedi. Dadam varrak olib berdi. Men velosiped uchdim.






‘
tutuq
belgisi

a'lo
e'lon
va'da
Tal'at
Ra'no
Sur'at

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	'



A'zam yomon baho oldi. Dadasini undan xafa bo'ldi. A'zam «a'lo» o'qishga va'da berdi.





Mavzu. YANGI YIL

1-topshiriq. Rasmlar asosida suhbatlashing.



ar-cha



Qorbobo va
Qorqiz



archa
o'yinchoqlari

2-topshiriq. Tinglang va takrorlang.



Bugun Yangi yil bayrami. Bayramga Qorbobo va Qorqiz mehmonga keldi. Biz she'r va qo'shiqlar aytdik. Qorbobo sovg'a berdi. Hamma raqsga tushdi.

3-topshiriq. Topishmoqning javobini toping.

Yozda ham qishda
Bir xil kiyimda.



4-topshiriq. She'ni ifodali o'qing.

SALOM, YANGI YIL!

Salom, yangi yil,
Shodlik kunimiz!
Baxtiyor o'tar
Kun-u tunimiz.

Bizlarni bayram
Xo'p sevintirdi.
Qorbobo bizga
Sovg'a keltirdi.

Keling, bolalar,
Yayrab o'ynaylik.
Yangi yil kuyin
Birga kuylaylik.

Ilyos Muslim

1-mashq. Ko'chirib yozing.




Biz archani yasatdik.
Unga o'yinchoqlar osdik.



5-topshiriq. Suhbatni o'qing va tarjima qiling.

- Yangi yil bayrami qachon bo'ldi?
- Yangi yil bayrami bugun bo'ldi.
- Bayramga kimlar keldi?
- Bayramga Qorbobo va Qorqiz keldi.
- Kim sovg'a berdi?
- Qorbobo sovg'a berdi.

2-mashq. Rasmlar o'rniga so'zlar qo'yib yozing.

Archa bayrami bo'ldi. Bayramga
va  keldi. Qorbobo bizga
berdi.



6-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.

QOR

Olcha guli bargiday,
O'ynab, uchib yog'ar qor.
Ajab qorga qarayman,
Ko'zimda yashnar bahor.



Yosh-u qarisi bari
Dilida qordan viqor.
Olmosday qor tagida
Kuladi ko'rkam bahor.

Zulfiya

3-mashq. Maqollarni o'qing va ko'chirib yozing.



Bugungi ishni ertaga
qoyma. Bilim - aql chiroqi.



Mavzu: SANAYMIZ

1-topshiriq. Rasmlar asosida suhbatlashing.



--	--	--	--	--	--

- Bular nimalar?
- Bular koptoklar.
- Koptoklar nechta?
- Ular uchta.

- Kataklar nechta?
- Kataklar oltita.

2-topshiriq. Sanang va to'g'ri talaffuz qiling.


- | | | |
|----------|-----------|-------------|
| 1 — bir | 4 — to'rt | 7 — yetti |
| 2 — ikki | 5 — besh | 8 — sakkiz |
| 3 — uch | 6 — olti | 9 — to'qqiz |
| | | 10 — o'n |

1-mashq. O'qing va suhbatni davom ettiring.

- Bu sinf kattami?
- Ha, bu sinf katta.
- Sinfda nechta parta bor?
- Sinfda o'n beshta parta bor.



— Senda nechta kitob bor?
 — Menda beshta kitob bor.



2-mashq. O'qing va ko'chirib yozing.

ikki	ikkita	olti	oltita
+ta		yetti	+ta
uch	uchta	sakkiz	sakkizta



3-topshiriq. Daftaringizga quyidagi rasmni chizing. Bo'sh kataklarga sonlarni tartib bilan yozing.

▲		
1	2	
4		
7		

▲		
2	3	
	7	
	5	
	4	

▲		
2		4
5		7
1		3
6		8
7		9

4-topshiriq. Matnni o'qing, raqamlarni so'z bilan yozib, gaplarni ko'chiring.

Xonamda 2 ta stol, 4 ta stul bor. Stolning ustida 7 ta darslik, 3 ta ertak kitobi turibdi.

Qalamdonimda 5 ta ruchka, 10 ta rangli qalam bor. Papkamda ham 2 ta darslik, 4 ta daftar bor.

Deraza oldiga 2 ta guldun qo'yilgan.

5-topshiriq. She'ni tinglang va takrorlang.

— Bir, ikki, besh, olti!

— Besh, olti deb kim aytdi?

Adashib ketdi Sotti,
Ikki son hatlab o'tdi.

To'rtidan keyin besh kelar,
Bir-biriga esh kelar.

Sotti buni bilmaydi,
Hammamizni qiynaydi.

— Qani, boshdan boshlaymiz,
Cho'p donalar tashlaymiz.

— Bir, ikki, uch, to'rt, besh!
Yaxshi aytdik buni tez...

Adham Karimov



3-mashq. Nuqtalar o'rniga sonlarni qo'yib, ko'chirib yozing.

Mana ... ta daftar. Menda ... ta kitob bor. Aziz ... ta daftar, ... ta qalam

oldi. Sinfimizda ... ta o'quvchi bor.
Bugun darsga ... ta o'quvchi kelmadi.

6-topshiriq. Rasmlar asosida gap tuzing.
Gaplarni daftaringizga ko'chirib yozing.

Mana  ta behi.

Mana bu  ta olma.

Bu  ta shaftoli.

7-topshiriq. Sonlarni to'g'ri talaffuz qiling.

10 — o'n	60 — oltmish
20 — yigirma	70 — yetmish
30 — o'ttiz	80 — sakson
40 — qirq	90 — to'qson
50 — ellik	100 — yuz

4-mashq. Sonlarni to'g'ri talaffuz qilib o'qing
va ular ishtirokida gaplar tuzing.

9 ta kitob	18 ta ishchi
15 ta daftar	19 ta dehqon
25 ta qiz bola	30 ta archa
20 ta o'g'il bola	40 ta bola
10 ta rasm	50 ta yulduz



Mavzu: O'QUV QUROLLARI

1-topshiriq. O'quv qurollari nomini ayting va so'z birikmalari tuzing.



2-topshiriq. Lug'atni o'qing.


o'chirg'ich — резинка

chizg'ich — линейка

kundalik daftar — дневник

bo'r — мел

3-topshiriq. Rasmlar asosida suhbatlashing.



- Kimda o'chirg'ich bor?
- Menda o'chirg'ich bor.
- Chizg'ich qani?
- Mana chizg'ich.

1-mashq. Rasmlar o'rniga so'zlarni yozib qo'ying.

Kecha men  ,  ,
 sotib oldim. Bu mening 
im. Mana rangli  lar.

4-topshiriq. Topishmoqlarning javobini toping.

Olsam qo'lga,
Tushar yo'lga.



Ongimizga nur sochar,
Sirlar eshigin ochar.



Mustaqil ish. *Kitob, qalam, o'chirg'ich, bo'r* so'zlari ishtirokida gaplar tuzing.



5-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va davom ettiring.

- Bu kimning kundaligi?
- Bu mening kundaligim.
- Bu sening qalamingmi?
-

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli harflarni qo‘yib so‘z hosil qiling va gaplar tuzing.

K .. t .. b, q .. la .., o‘ .. ir .. i ..,
.. uch .. a.

6-topshiriq. Gaplarni o‘qing va ona tilingizga tarjima qiling.

Rustam doskaga sanani yozdi. Bu bo‘r.
Bo‘rni ol. Kitob, daftaringni parta ustiga qo‘y.
Kitobni toza tut.

3-mashq. Maqollarni ko‘chirib yozing.

Aql yoshda emas, boshda. Olim bo‘lsang, olam seniki. Kitobdan yaxshi do‘st yo‘q. Ikki tingla, bir so‘zla.

7-topshiriq. Savol-javoblarni o‘qing, ona tilingizga tarjima qiling.

- Bu kimning kitobi?
- Bu mening kitobim.
- Bu sening daftaringmi?
- Yo‘q, bu mening daftarim emas.

4-mashq. O‘qing va ko‘chirib yozing.

Biz ikkinchi sinfda o‘qiymiz. Bizning turli o‘quv qurollarimiz bor. Bu o‘zbek tili kitobimiz. Bu ish daftari. Rangli ruchka va qalamlardan foydalanamiz.

5-mashq. Gaplarni o‘qing va daftaringizga ko‘chiring.

Bu nima? Bu kitob. Bu nima? Bu daftar. Bu bizning kitobimiz. Sening daftaring. Mana qora qalam. Bu yangi kundalikmi? Ha, bu yangi kundalik. Sen o‘quv qurollaringni asraysanmi? Ha, asrayman. Ular menga har kuni kerak bo‘ladi.

Mustaqil ish. Berilgan so‘zlarning rasmini chizing. *Chizg‘ich, qalam, daftar.*



Mavzu: RANGLAR

1-topshiriq. Namunadagidek suhbatlashing.

- Bu qaysi rang?
- Bu yashil rang.
- U qanday lola?
- U sariq lola.



1-mashq. O'qing va rasmlar asosida gaplar tuzing.




- Bu bino qanday?
- Bino katta va
- Gilos qanday rangda?
- Gilos ... rangda.
- Karam nechta?
- Karam
- U oqmi?
- Yoq, u

2-topshiriq. Rasmlarda nimalarni ko'ryapsiz? Ranglarini aytib bering.



Namuna: Bu qizil lola.

3-topshiriq. Rasmlar o'rniga so'zlar qo'yib daftaringizga ko'chiring.

Bu qanday olma? Bu yashil .

U qanday lola? U qizil .

2-mashq. Matnni o'qing va ko'chirib yozing.

Sovg'a

Kecha Yulduzning tug'ilgan kuni edi. Do'stlari turli sovg'alar olib keldilar. Lobar har xil rangli pufaklar, Odil oppoq atirgullar sovg'a qildi. Yulduz sovg'alardan juda xursand bo'ldi.



4-topshiriq. Suhbatni o'qing.

- Bu qaysi rang?
- Bu yashil rang.
- Bu gullar qanday rangda?
- Bu gul qizil, bunisi esa sariq rangda.

3-mashq. Gaplarni o'qing.

Karimning rangli qalamlari bor. Ular o'n ikkita. Karimda oq, qora, qizil, ko'k,

yashil, sariq, jigarrang, kulrang qalamlar bor.

5-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Kimda rangli qalamlar bor?
2. Rangli qalamlar nechta?
3. Karimda qanaqa rangli qalamlar bor?

6-topshiriq. Topishmoqni o'qing, javobini toping.

Safda o'n ikki askar,
Bo'yi, basti barobar.
Yo'nsang yog'och po'stini
Rasmlarga berar rang.



4-mashq. Rasmlar asosida gaplar tuzing.



Ikkita ... olma. Shaftoli katta va

7-topshiriq. She'rne tinglang, jo'r bo'lib aytang.

Yashil, qizil, sariq rang,
Ketma-ket yonar, qarang!
Tariqvoy yo'l chetida
Kuzatar, boshi garang.

Ko'zin qisib svetofor
Der: Tariqvoy, shoshmay tur!
Yashil ko'zim yonganda,
Yo'l ochiq — bermalol yur.

T. Bahromov

Mustaqil ish. Albomingizga kamalak rasmini chizing, uni yetti xil rangga bo'yang.



5-mashq. Suhbat matnini to'ldiring.

- Osmon qanday rangda?
- Osmon havorangda.
- Bu gullar qanday rangda?
- Bu qizil gul, ana u esa sariq gul.

6-mashq. O'qing. Ranglarni ifodalagan so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

Bu yashil olma. Kulrang palto. Havorang ko'ylak. Jigarrang shim.

8-topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering.

Bu bizning bog'. Bog'imizda turli gullar bor. Bobom bilan bog'ga chiqdik. Men

bobomdan bilmagan ranglarimni so‘radim. Bu qaysi rang? Bu olovrang. Bu-chi? Bu ko‘k rang. Nimaga gullar turli rangda? Chunki ularni tabiat shunday yaratgan, — deb javob berdilar.

Mustaqil ish. Berilgan savolga yozma javob yozing. Sizga qaysi ranglar yoqadi?

9-topshiriq. She‘rlarni ifodali o‘qing. Rang bildirgan so‘zlarni izohlang.

QIZILGUL

Qizilgulning g‘unchasi
Atir to‘la xumchasi.
Yaproqlari yostiqla,
Tikanlari ortiqcha.

PAXTA VA CHIGIT

Paxtaginam lo‘ppicha,
Chanoqlari do‘ppicha.
O‘zi – oppoq,

Bir qarang
Bolachasi –
Jigarrang.

Anvar Obidjon



Mavzu: TANA A'ZOLARI

1-topshiriq. Rasmlar asosida suhbatlashing.

- Aziz nima qilyapti?
- Aziz tishini tozalayapti.
- Lola-chi?
- Lola qo'lini yuvyapti.



1-mashq. O'qing va to'g'ri talaffuz qiling.

Uning qo'li toza. Sevaraning sochlari sariq. Saida, sochingni tara. Aziz tishini tozalayapti. Akmal yuzini yuvyapti. U qo'lini sochiq bilan artyapti.

Lug'at

qo'l —	рука	artmoq —	вытирать
toza —	ЧИСТЫЙ	tish —	зуб
soch —	ВОЛОС	yuz —	лицо

2-topshiriq. Rasmdagi bolaning tana a'zolari nomlarini ayting, namunadagidek suhbatlashing.

Namuna:

- Bu nima?
- Bu ko‘z.
- Uning ko‘zi qanday?
- Uning ko‘zi qora va katta.




2-mashq. Topishmoqlarni o‘qing va javobini yozing.

Katta kichik besh o‘rtoq,
To‘plansa bo‘lar to‘qmoq.



Ikki aka-uka yashaydi,
Bir-birini ko‘rmaydi.



3-mashq. Suhbat matnini davom ettiring.

- Bu kim?
- Bu Botir.
- Uning bo‘yi qanday?
- Uning bo‘yi baland.
- Sochi-chi?
-

4-mashq. To'g'ri talaffuz qiling va ko'chirib yozing.

Bir supacha,
Besh bekacha.



Teg, teg desam tegmaydi,
Tegma desam tegadi.



3-topshiriq. She'rni tinglang va jo'r bo'lib takrorlang.

Ota-ona — ikki so'z,
Biri qosh-u, biri ko'z.
Bir-biridan qimmatli,
Mehri daryo, himmatli.

Tolib Yo'ldosh



5-mashq. Nuqtalar o'rnini to'ldiring. Daftaringizga yozing.

Bu ... qo'lim. Botir ... tarayapti. Ertalab
... yuvamiz. Nodiraning sochi

Foydalanish uchun so'zlar: *tishlarimizni, sochini, mening, qora.*

4-topshiriq. She'rni ifodali o'qing. She'r nima haqida ekanligini gapirib bering.

BARMOQCHA

Onasining kaftiga
Kaftin qo'yib Gulasal,
Barmoqlarni o'lchardi
Erkalanib har safar.

Kichkina-ku barmog'ing,
Dedi bir kun onasi.
Axir barmog'im, – der, u
– Barmog'ingiz bolasi.

(«G'uncha» jurnalidan)

6-mashq. Topishmoqlarni o'qing va javobini yozing.

Qator-qator tosh terdim,
Jayron otni bo'sh qo'ydim.

Mustaqil ish. To'g'ri talaffuz qiling.

Bir oyoqlab turdi laylak,
Nog'orani chaldi tak-tak.
Bir oyog'i charchab qoldi,
Bitta baqa tutib oldi.



Mavzu: KIYIMLAR

1-topshiriq. Rasmlar asosida suhbatlashing.

- Qizcha nima kiydi?
- U ko‘ylak kiydi.
- Nimcha ham kiydimi?
- Ha, nimcha ham kiydi.



- Bu kamar qanday?
- U juda chiroyli.



2-topshiriq. O‘qing va to‘g‘ri talaffuz qiling.

Bu paypoq kichikmi? — Yo‘q, bu katta paypoq. Qizil nimchani kiyasanmi? — Kiymayman. O‘ktam nima kiygan? — U oq ko‘ylak kiygan. O‘ktamning etigi qanday rangda? — Uning etigi qora rangda. Etigingni toza tut.

Lug‘at

paypoq — носки
kichik — маленький
kiymoq — одевать
ko‘ylak — рубашка

oq — белый
etik — сапог
yangi — новый
eski — старый

1-mashq. Tinglang va soʻzlarni koʻchirib yozing.

Koʻylak, shim, paypoq, etik, doʻppi, qalpoq.

3-topshiriq. Rasmlarda nimalarni koʻryapsiz? Nomini ayting va namunadagidek suhbatlashing.



Namuna: — Bu shimmi?

— Ha, bu shim.

— Shimni kim kiyadi?

— Shimni oʻgʻil bolalar kiyadi.

— Bu toʻn kimniki?

— Bu toʻn bobomniki.



4-topshiriq. Toʻgʻri talaffuz qiling va topishmoqning javobini yozing.

Besh xonaga bir yoʻlak,
Qoʻlingga loyiq koʻylak.



2-mashq. Oʻqing va koʻchirib yozing.

Oyijonim bayramga koʻylak tikib berdilar.
Koʻylagimga hammaning havasi keldi.

Mustaqil ish. Harflar qo'yib, so'zlar va ular ishtirokida gaplar tuzing, gaplarni daftaringizga ko'chiring.

Ko'y . ak, sh . m, pa . to, d . ppi.

5-topshiriq. Tinglang va jo'r bo'lib ayting.

DO'PPI

O'zbeklikka tushgan xos,
Yigitlarga do'ppi mos.
G'ururlarga boy bo'lib,
Boshga qo'ngan oy bo'lib.
Gard yuqtirmay kiygan ham,
O'z do'ppisin suygan ham.
Ramzin boshga ko'tarar,
Mag'rur o'zbek atalar.

Odil Abdurahmon



6-topshiriq. Berilgan so'zlarni tartib bilan qo'yib, gaplarni yozing.

Namuna: Qishda etik kiyaman.

chiroyli	qalpog'imni	kiydim
oppoq	mening	ko'ylagim
palto	Go'zal	kiydi

7-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.

KO'YLAGIM

Yangi ko'ylak tikdilar
Ayajonim bayramga.
Sevinchimga sig'mayin,
Rahmat dedim ayamga,
Ko'ylagim, ho, ko'ylagim,
Kiysam kelar o'ynagim.

Po'lat Mo'min

3-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.

Kiyimingni iflos Sovuqda bosh kiyimsiz Bolalar ob-havoga qarab Yozda odamlar issiq

Foydalanish uchun so'zlar: *kiyinishlari kerak, yurma, qilma, kiyinmaydilar.*

Mustaqil ish. Kiyimlar mavzusida uchta gap tuzing.

Namuna: Dugonamning chiroyli ko'ylagi bor.



Mavzu: YIL FASLLARI

1-topshiriq. Suhbatni davom ettiring.

- Bir yilda nechta fasl bor?
- Bir yilda to‘rt fasl bor.
- Har faslda nechta oy bor?
- Har faslda uch oy bor.

2-topshiriq. She‘rni o‘qing va jo‘r bo‘lib takrorlang.

O‘tib ketdi kuz chog‘i,
Yetib keldi qish yana.
Keng muzlik quchog‘ida
Bolalar tortar chana.

Ilyos Muslim

1-mashq. Ko‘chirib yozing.

Yerni qor bosar,
Soyni muz bosar,
Shamol tinsa sal,
Bu qaysi mahal?

Po‘lat Mo‘min

3-topshiriq. Tinglang va takrorlang.

Bahorda daraxtlar gullaydi. Yozda mevalar pishadi. Kun issiq bo‘ladi. Kuzda

daraxtlarning barglari sargʻayadi. Qishda qor yogʻadi, sovuq boʻladi.



4-topshiriq. Suhbat matnini oʻqing va davom ettiring.

- Hozir qaysi fasl?
- Hozir bahor fasli.
- Bahor faslida havo qanday boʻladi?
- Bahor faslida havo iliq boʻladi.
- Yozda-chi?
-

5-topshiriq. Rasmlarda nimalarni koʻryapsiz? Nomini ayting va namunadagidek suhbatlashing.



Namuna: Bu qish fasli. Qish faslidan soʻng bahor fasli keladi.

2-mashq. O‘qing va ko‘chirib yozing.

Qishda havo sovuq bo‘ladi. Kun qisqa, tun uzun bo‘ladi. Bahorda havo iliq bo‘ladi. 22-martda kun va tun tenglashadi. Yozda havo issiq bo‘ladi. Kun uzun, tun qisqa bo‘ladi. Kuzda daraxtlarning barglari sarg‘ayadi. Kun qisqarib, tun uzayib boradi.

3-mashq. Kerakli harflarni qo‘yib, so‘zlar hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing. Gaplarni daftaringizga ko‘chiring.

q	sh	m	r	t	
sh	m	l	y	m	r



6-topshiriq. Suhbat matnini o‘qing va davom ettiring.

- Hozir qaysi fasl?
-
- Bahor faslidan keyin qaysi fasl keladi?
-
- Yozning birinchi oyi qanday nomlanadi?
-

4-mashq. O'qing va tarjima qiling.

Bir yilda nechta fasl bor? — Bir yilda to'rt fasl bor. Hozir qaysi fasl? — Hozir qish. Qishda nima yog'adi? — Qishda qor yog'adi. Yana yomg'ir yog'adi. Bahorda ham yomg'ir yog'adi. Yana qanday fasllar bor? — Bahor, yoz, kuz fasllari bor.

Lug'at

yil — год

fasl — сезон, период

hozir — сейчас

qish — зима

qor — снег

bahor — весна

yomg'ir — дождь

yana — ещё

yoz — лето

kuz — осень

7-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Bir yilda nechta fasl bor?
2. Bir fasl necha oydan iborat?
3. Fasllar nomini ayting.
4. Hozir qaysi fasl?

8-topshiriq. Tinglang va jo'r bo'lib ayting.

YOZ

Shamol esadi g'ir-g'ir,
Yam-yashildir qir-adir.

Pishqirib oqar anhor,
Yurtimga keldi bahor...

Fasllarning ichida
Betakrori ekan yoz.
Chunki uning bag'rida
Ko'ngillar topar e'zoz.

Bog'lar qo'ynida shig'il,
Mevalar mehmonnavoz.
Daraxtlar shira bog'lab,
O'ziga berar pardoz.

Dildora Muhiddin qizi

5-mashq. O'qing va ko'chirib yozing.

- Bir yilda to'rt fasl bor.
- Qish, bahor, yoz, kuz.
- Har faslda uch oy.
- Qish: dekabr, yanvar, fevral.
- Bahor: mart, aprel, may.
- Yoz: iyun, iyul, avgust.
- Kuz: sentabr, oktabr, noyabr.

Mustaqil ish. Kuz va qish fasllari haqida nimalarni bilasiz? Daftaringizga yozing.



Mavzu: HAFTA KUNLARI

1-topshiriq. Suhbat matnini o'qing.

- Bir oy necha kundan iborat?
- Bir oy 30 yoki 31 kundan iborat.
- Bir oyda necha hafta bor?
- Bir oyda 4 hafta bor.
- Bir haftada necha kun bor?
- Bir haftada yetti kun bor.

2-topshiriq. Gapnlarni o'qing. Sonlar ifodalangan so'zlarni raqamlarga aylantirib daftaringizga yozing.

Bir yilda o'n ikki oy bor. Har bir oy to'rt haftadan iborat. Ayrim oylar o'ttiz yoki o'ttiz bir kundan iborat. Fevral oyida yigirma sakkiz yoki yigirma to'qqiz kun bor.

1-mashq. Savollarga javob bering.

- Bugun nechanchi sana?
-
- Haftaning nechanchi kuni?
-

— Hozir qaysi oy?

—

— Yilning nechanchi oyi?

—

Mustaqil ish. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.
Daftaringizga ko'chiring.

Bugun dushanba. Ertaga Biz sinfimiz bilan shahar bo'ylab sayohatga chiqamiz. ... olish kuni oilamiz bilan teatrga borishni rejalashtirdik. Dam olish kunidan so'ng boshlanadi.

Foydalanish uchun so'zlar: *seshanba, dam, ish kuni.*



3-topshiriq. Matnni o'qing. Eslab qoling.

Bir hafta yetti kundan iborat:

Haftaning birinchi kuni dushanba.

Haftaning ikkinchi kuni seshanba.

Haftaning uchinchi kuni chorshanba.

Haftaning to'rtinchi kuni payshanba.

Haftaning beshinchi kuni juma.

Haftaning oltinchi kuni shanba.

Haftaning yettinchi kuni yakshanba.

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib daftaringizga ko‘chiring.

Bir haftada ... kun bor. Bugun ..., haftaning birinchi kuni. Hamma ... va ishga boradi. Dushanba kuni ... soat darsimiz bor.

Foydalanish uchun so‘zlar: *o‘qishga, besh, yetti, dushanba.*

Mustaqil ish. Berilgan so‘z va so‘z birikmalarini daftaringizga ko‘chiring.

Kecha, bugun, erta, ertaga, indin, ish kuni, dam olish kuni.



4-topshiriq. Suhbat matnini to‘ldiring.

— Bugun haftaning qaysi kuni?

—

— U qanday nomlanadi?

—

3-mashq. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.

Bugun yakshanba. olish kuni.
Yakshanba kuni biz dam Uyimizga ... keladi.

Foydalanish uchun soʻzlar: *yakshanba, olamiz, dam, oʻrtoqlarim.*

Mustaqil ish. Qaysi hafta kuni nomida «U» harfi bor? Savolga javob yozing.

5-topshiriq. Sheʼrni ifodali oʻqing.

Yakshanbada	Payshanbadir!
Yetti oʻgʻlon —	Qolganini bilamiz-ku!
Ogʻa-ini.	Yakshanbani
Bir-bir mehmon	Sevamizku!
Har bir kun.	Eng kichigi
Bizga orzu	Yakshanbamiz
Olib kelar	Uyda qolib,
Dilga tuygʻu	Biz hammamiz
Solib kelar	Katta bogʻda
Eng kattasi	Sayr etamiz
Dushanbadir!	Yoki togʻda
Oʻrtanchasi	Gul teramiz.

Humoyun

Lugʻat

yetti oʻgʻlon — семеро братьев

ogʻa-ini — друзья

oʻrtancha — средний



Mavzu: OZIQ-OVQATLAR

1-topshiriq. Rasmlar asosida suhbatlashing.



asal



sariyog'



qand



sut



somsa



bo'tqa

- Nonushtada nima yeydilar?
- Non bilan sariyog'.
- Nima ichadilar?
- Choy bilan sut.

1-mashq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing.

- Choy bormi?
- Ha, bor. Marhamat, oling.
- Rahmat, men shirin choy ichaman.
- Stolda nimalar bor?

— Stolda choy, sut, qand, asal, sariyog' bor.

— Gulnora nima ichyapti?

— Choy ichyapti.

— Choy issiqmi?

— Ha, choy issiq.

— Dildora nima yeyapti?

— U non bilan sariyog' yeyapti.

Mustaqil ish. Lug'atdagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Lug'at

sut — МОЛОКО

asal — МЁД

qand — САХАР

ichmoq — ВЫПИТЬ

issiq — ТЁПЛЫЙ, ГОРЯЧИЙ

sariyog' — СЛИВОЧНОЕ

МАСЛО



2-topshiriq. Rasmlarda nimalarni ko'ryapsiz? Nomlarini ayting va namunadagidek suhbatlashing.



Namuna: Bu nima? — Bu palov. — Sizga palov yoqadimi? — Bizga palov juda yoqadi. — Bu somsa issiqmi? — Ha, issiq.

2-mashq. To'g'ri talaffuz qiling va ko'chirib yozing.

Odobli bola elga manzur.
Gulnora choy ichdi.

3-topshiriq. Tinglang va takrorlang.

Gul, gilos, guruch, gugurt, eshik, etik, mehnat, Ergash, tasha, kema.

4-topshiriq. Mustaqil ishni bajaring. Sizga qanday oziq-ovqat yoqadi? Og'zaki gap tuzing.

Namuna: — Menga qaymoq yoqadi. Sizga-chi?



3-mashq. Kerakli harflarni qo'yib, so'zlar hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing. Gaplarni daftaringizga ko'chiring.

s l

q n

q y m q

5-topshiriq. She'ni tinglang va jo'r bo'lib takrorlang.

OPPOQ QANDIM

Choyga solsam	Kir qo'l bilan
Terib-terib,	Ushlamayman.
Sen ketasan	Uvol qilib
Tezda erib,	Tashlamayman,
Oppoq qandim	Oppoq qandim
Yumshoq qandim.	Yumshoq qandim.

Shirin bo'lar
Ichgan choyim,
Hamma sendan
Xursand doim,
Oppoq qandim
Yumshoq qandim.

Po'lat Mo'min

Mustaqil ish. She'ni tinglang. Taomlarga oid so'zlarni toping va yozing.

QAYSI TAOM SHIRIN?

Maktabdan qaytisharkan
Ochqashib sinfdoshlar,

Shirin taom haqida
Gulnoraxon bahs boshlar:

— Oyim palov damlasa,
Doimo chiqar xushta'm,
Chunki oyijonimga
Ko'maklashaman men ham.

— Palov-ku yaxshi, lekin
Sho'rva ham yomon emas.
Ayniqsa, xo'p qaynatsang, —
Deb gapga tushar O'lmas.

Suhbat qizib borarkan,
Semizlikdan hansirab
Dangasa Boqi polvon
So'z boshlar qornin silab:

— Xushxo'r yemish juda ko'p,
Chuchvara, manti, lag'mon.
Barisi ko'ngil tortar,
Barisi jonga darmon...

Abdurahmon Akbar



Mavzu: IDISHLAR

1-topshiriq. Rasmlar asosida suhbatlashing.



- Bular nimalar?
- Bular pichoq, qoshiq va sanchqi.
- Kosa va laganga nima suziladi?
-

1-mashq. O‘qing va ko‘chirib yozing.

Idishlar qayerda? — Idishlar javonda.
Menga qoshiq bering. Menga katta lagan olib bering. Dasturxonga olita sanchqi qo‘ying. Stolda kosa bilan likopcha bor.

Lug‘at

idish — посуда

javon — шкаф

qoshiq — ложка

nechta — сколько

lagan — большая тарелка

sanchqi — вилка

qo‘ymoq — ставить

likopcha — тарелка



2-topshiriq. Namunadagidek suhbatlashing.

Namuna: — Bu nima? — Bu lagan.
— Laganni nima qilasiz? — Laganga osh suzamid.

— Bu qoshiqmi? — Ha, bu qoshiq.
— Qoshiq bilan nima qilasiz? — Qoshiq bilan ovqat yeymiz.

3-topshiriq. Tinglang va rollarga bo‘lib o‘qing.

— Dasturxonda nimalar bor?
— Dasturxonda likopcha, qoshiq, piyola, choynak bor.
— Likopchaga shirinliklar qo‘yganmiz.
— Hozir choy ichmoqchimiz.

2-mashq. Kerakli harflarni qo‘yib, so‘zlar hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing, gaplarni daftaringizga ko‘chiring.

i sh o s q z n i ch q

3-mashq. To‘g‘ri talaffuz qiling va ko‘chirib yozing.

Dasturxonga idishlarni qo‘ying. Mana likopcha, qoshiq, choynak.

Choynakda choy bor. Bu piyola.
Piyolada choy ichamiz.

Mustaqil ish. Tez aytishni takrorlang.

Oq choynakka oq qopqoq,
Ko'k choynakka ko'k qopqoq.

Lug'at

qopqoq — крышка

ko'k — синий

4-topshiriq. She'rni tinglang va jo'r bo'lib takrorlang.

IDISH-TOVOQLAR

Oshxonaning ko'rki — biz,
Ahil og'a-inilar.

Pishgan taomlaringiz

Bag'rimizga quyilar...

Birimiz Kosa, yana

Birimiz Lagandirmiz.

Kim — Likopcha, kim — Tovoq

Nomini olgandirmiz.

Muhiddin Omon

Nutqiy mavzular bo'yicha o'zbekcha-tojikcha LUG'AT

Соли нав

Archa — арча

Yangi yil — Соли нав

Qorbobo — Бобои
барфӣ

Qorqiz — Барфак

mehmon — меҳмон

qo'shiq — суруд

raqs — рақс

aytmoq — гуфтан

Мешуморем

pechta — чандто

bor — ҳаст, дорем

beshta — панҷто

sanamoq — шуморидан

Ашёи хониш

o'chirg'ich — хаткушак

chizg'ich — ҷадвал

kundalik daftar —
рӯзнома

bo'r — бўр

kitob — китоб

qalam — қалам

daftar — дафтар

rangli — рангдор

aql — ақл

Рангҳо

qanday — чӣ хел,
чӣ гуна

oq — сафед

qora — сиёҳ

qizil — сурх

sariq — зард

yashil — сабз

ko'k — кабуд

rang — ранг

atirgul — атиргул

xursand — хурсанд

Аъзои бадан

bosh — сар

qo'l — даст

oyoq — пой
 yuz — рӯй
 tish — дандон
 soch — мӯй
 ko‘z — чашм
 quloq — гӯш
 til — забон
 lab — лаб
 burun — бинӣ
 qosh — абрӯ
 toza — тоза
 artmoq — пок кардан
 tozalamoq — тоза
 кардан

Либосҳо

ko‘ylak — курта
 shim — шим
 kamar — камар
 rauroq — чуроб
 etik — мӯза
 yangi — нав
 eski — кӯҳна
 kichik — хурд
 to‘n — қома
 do‘ppi — тоқӣ
 tikmoq — дӯхтан

Фаслҳои сол

fasl — фасл
 hozir — ҳозир
 qish — зимистон
 bahor — баҳор
 yoz — тобистон
 kuz — тирамоҳ
 yomg‘ir — борон
 yana — боз
 daraxt — дарахт
 gullamoq — гул кардан
 qor — барф
 sovuq — хунук
 issiq — гарм

Рӯзҳои ҳафта

bugun — имрӯз
 oy — моҳ
 kecha — шаб
 hafta — ҳафта
 ertaga — пагоҳ
 kun — рӯз
 dushanba — душанбе
 seshanba — сешанбе
 chorshanba — чоршанбе
 payshanba — панҷшанбе

juma — чумъа
shanba — шанбе
yakshanba — якшанбе

Хўроквориҳо

nonushta — наҳор,
нонушта
tushlik — хўроки
нисфирўзӣ
kechqurun — шабона,
беғоҳ
kechki ovqat — хўроки
шом
asal — асал
qand — қанд

sariyogʻ — рағғани зард
ichmoq — нўшидан
shirin — ширин
shoʻrva — шўрбо
yemoq — хўрдан

Зарфҳо

idish — зарф
qoshiq — қошуқ, чумча
sanchqi — панҷшоҳ,
вилка
qoʻymoq — қаймоқ,
саршир
qayerda — дар кучо
pichoq — корд

Mundarija

Tanishuv	3
A, O, N harflari	4
T, M harflari	5
I harfi.....	7
B, L harflari	8
K harfi	10
R harfi	11
O', D harflari	12
U harfi	14
Y harfi	15
E harfi	16
G harfi	17
Ng harfi	18
S harfi	19
H, X harflari	20
P harfi	22
Q harfi	23
Sh, Ch harflari	24
J harfi.....	26
G' harfi	27
Z harfi.....	28
F harfi.....	29
V harfi.....	30
«'» tutuq belgisi	31

Yangi yil.....	32
Sanaymiz	36
O'quv qurollari	40
Ranglar	44
Tana a'zolari	49
Kiyimlar	53
Yil fasllari	57
Hafta kunlari	62
Oziq-ovqatlar	66
Idishlar	71
Nutqiy mavzular bo'yicha o'zbekcha-tojikcha lug'at	74

O'quv nashri

ABDUROZIQ RAFIYEV, GULNORA MUHAMMADJONOVA,
TURG'UN TOSHPOLATOV

O'ZBEK TILI

Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning
2-sinfi uchun darslik

To'rtinchi nashr

(Tojik tilida)

Original-maket «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy
uyida tayyorlandi. 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Muharrir *T. Mirzayev*
Badiiy muharrir *H. Outlukov*
Rassom *A. Bahromov*
O'x. muharrir *L. Xijova*
Musahhih *M. Ishonxonova*
Sahifalovchi *N. Ahmedova*

Nashriyot litsenzyasi AI ¹ 158. 14.08.2009.

Bosishga 2018-yil 10-mayda ruxsat etildi. Bichimi 70x90^{1/16}.
Ofset qog'oz. «Virtec Pragmatica UZ» garniturasida ofset bosma usulida
bosildi. Kegl 16, 14. Shartli bosma tabog'i 5,85. Nashr tabog'i 6,08.
7174 nusxada chop etildi. Buyurtma ¹ 130-18.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'qituvchi» nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi. O'shkent – 206, Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi, 1-uy.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchi-ning ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismida ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Kî'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.